

**QORA RANGLI QORAKO'L QO'YLARIDA JUN TOLASI IPAKSIMONLIGI VA  
YALTIROQLIGINING AVLODLARGA BERILISHI**

**Ismatova Mohinur Sayitniyoz qizi-tayanch doktorant**

*Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti*

**Gaziyev.A. Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy- tadqiqot instituti q.x.d., professor.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qora rangli qorako'l qo'ylarining jun tolasi sifat ko'rsatkichlari hamda ularning avlodlarga berilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** qorako'l qo'ylari, avlodlar, jun tolasi, sifat ko'rsatkichlari.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются результаты исследования показателей качества шерстяного волокна черных каракульских овец и их передачи будущим поколениям.

**Ключевые слова.** Каракульские овцы, поколения, шерстяное волокно, показатели качества.

**Abstract.** This article examines the results of a study on the quality indicators of wool fiber from black Karakul sheep and their transmission to future generations.

**Key words.** Karakul sheep, generations, wool fiber, quality indicators.

**Kirish.** Qorako'lchilik chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qorako'l qo'ylari nafaqat qimmatbaho teri mahsuloti, shuningdek sifatli go'sht, sut hamda jun mahsulotlari berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Qorako'l qo'ylarining nasliy hamda terilarning qimmatligini baholashda inobatga olinadigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bu jun-tola qoplarning sifat ko'rsatkichlari hisoblanuvchi ipaksimonlik va yaltiroqlik hisoblanadi.

Shu nuqtai-nazardan olib qaralganda jun-tolasining sifat ko'rsatkichlari bilan tadqiqot olib borish dolzarb hisoblanadi. Jun tolalarining ipaksimonligi va yaltiroqligi qo'zilarini baholashda barcha xususiyatlarning yaxshi namoyon bo'lishida kuchli yaltiroqlik, me'yorli va kuchli ipaksimonlikka ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi va ushbu qo'zilar qimmatli hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi.** Turli gul tipiga mansub bo'lgan qora rangli qorako'l qo'zilarining jun tolasi sifat ko'rsatkichlari hisoblangan ipaksimonlik va yaltiroqlik ko'rsatkichlariga berilishini o'rganish tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

**Tadqiqot ob'ekti va usullari.** Tadqiqotlar Buxoro viloyati, Peshku tumani "Jongeldi qorako'lchilik" MChJ da urchitiluvchi qora rangli qorako'l qo'ylaridan olingan avlodlar bilan olib borildi. Tadqiqotlar davomida turli gul tipiga mansub olingan avlodlarning jun tolasi sifat ko'rsatkichlari umumqabul qilingan zootexniyaviy usullar yordamida, shuningdek "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish)" bo'yicha qo'llanma (Yusupov S.Yu. va boshqalar, 2021-y) asosida ko'z bilan ko'rish yordamida aniqlandi hamda qo'zilarining genotipik holatlari baholandi. Olingan ma'lumotlarga "Руководство по биометрии для зоотехников" (Плохинский. Н.А. Москва. 1969. 256 с) asosida variatsion statistika usullarida matematik ishlov berilib, o'rtacha arifmetik qiymati ( $\bar{X}$ ), uning xatosi ( $S_x$ ) va o'zgaruvchanligi ( $C_v$ ) aniqlandi.

**Tadqiqot natijalari.** Jun tolalarining ipaksimonligi va yaltiroqligi qo'zilarini tanlash va ulardan foydalanishda muhim hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlarning yuqori darajada namoyon bo'lishi qo'zilar hamda qorako'l terilarining qimmatlilikini oshiradi. Ushbu ko'rsatkichlarning namoyon bo'lishi turli faktorlarga bog'liq. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, ushbu xususiyatlar gul tiplari, rang, rangbaranglik, jun-tola qoplami uzunligi va boshqa bir qator belgilar ta'sirida turli o'zgarishlarga uchraydi.

Tadqiqotlar jarayonida turli gul tipiga mansub bo'lgan qo'zilar jun tolasining ipaksimonligi o'rganildi. Ma'lumotlar 1 -jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

**Turli gul tipiga mansub qora rangli qorako'l qo'zilarini jun tolasining ipaksimonligi, ( $X \pm S_x$ )**

Gul tiplari	n	Jun tolasining ipaksimonligi, %		
		Kuchli	O'rta	Past
Yarim doira	105	49,9±4,88	45,8±4,86	4,3±1,98
Qovurg'asimon	98	43,8±5,01	46,6±5,04	9,6±2,97
Yassi	127	53,8±4,42	40,5±4,35	5,7±2,06

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, yassi gul tipidagi qo'zilar terisi yarim doira va qovurg'asimon gul tiplaridagi terilarga nisbatan kuchli ipaksimonlikka (53,8±4,42) ega bo'lganini ko'rish mumkin, qolgan gul tiplari esa mutanosib ravishda (49,9±4,88) hamda (43,8±5,01) holatda ipaksimonlikka ega bo'lganligini ko'rish mumkin, shuningdek ushbu tendensiya o'rta va past ipaksimonlik ko'rsatkichlarida ham saqlanib qolganligini qayd etish lozim.

Tadqiqotlar davomida turli gul tipiga mansub qora rangli qorako'l qo'zilarini jun tolasining yaltiroqligi o'rganildi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

**Turli gul tipiga mansub qora rangli qorako'l qo'zilarini jun tolasining yaltiroqligi, ( $X \pm S_x$ )**

Gul tiplari	n	Jun tolasining yaltiroqligi, %		
		Kuchli	O'rta	Past
Yarim doira	105	48,9±4,88	40,8±4,80	10,3±2,97
Qovurg'asimon	98	44,4±5,02	46,7±5,04	8,90±2,87
Yassi	127	53,8±4,42	42,4±4,38	3,80±1,69

Jun tolasining yaltiroqligi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yassi gul tipiga xos bo'lgan qo'zilar boshqa tip vakillariga nisbatan kuchli yaltiroqlikka ega avlodlar bo'yicha mos ravishda 4,9 hamda 9,4 foiz ustunlik qilgan bo'lsa, xuddi shunday farqlanishlar o'rta va past ifodalanishda ham saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Ushbu holatda eng yuqori ko'rsatkichlar bilan yassi tipli qo'zilar xarakterlanishini jun tolasining yaltiroqligi va yassi gul tipi yuqori korrelyatsion bog'liqlikda bo'lishi bilan izohlash o'rindir.

**Xulosa.** Qayd etilgan natijalardan aytish mumkinki, barcha gul tiplaridagi avlodlarda jun tolasining sifat ko'rsatkichlari yaxshi ifodalangan va bundan seleksiyada unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yusupov S.YU. va boshqalar. "Qorako'chilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish)" bo'yicha qo'llanma. 2021y.
2. Ploxinskiy. N.A. Rukovodstvo po biometrii dlya zootexnikov. Moskva. 1969.256s.

